

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Idiyeva Gulchehra Izomovna

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) ixtisosligi tayanch doktoranti.

Buxoro davlat pedagogika instituti

<https://orcid.org/0009-0000-1134-0658>

Annotatsiya. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida, tafakkurini rivojlantirishda va ijodiy qobiliyatlarini ochishda muhim bosqich hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda tasavvur kengligi, yangicha fikrlashga moyillik va o‘yin orqali o‘rganish ehtiyoji yuqori bo‘ladi. Shu bois bu davrda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki kelajakdagi mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va yangilik yaratish kompetensiyalariga zamin yaratadi. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning dolzarbligi zamonaviy jamiyatning tezkor o‘zgarishlari, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zarurati va ta’lim jarayonida “4K” – kreativlik, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarining ahamiyatining ortib borishi bilan belgilanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun rasm chizish, qo‘l mehnati, hikoya tuzish, tajribalar o‘tkazish kabi amaliy ijodiy faoliyatlar ularning tasavvuri va tafakkurini kengaytiradi. Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish – o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularni kelajak hayotga tayyorlash va ta’lim sifatini yuksaltirishning muhim omillaridan biridir. Bu maqolada ijodiy qobiliyat va uni boshlang‘ich sinflarda rivojlantirishning bir necha xil usullari, ahamiyati va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda e’tibor qaratish muhim bo‘lgan jihatlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: 4K model, ijodiy qobiliyat, tanqidiy yondashuv, mustaqil fikrlash, divergent fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar, muammo, moslashuvchanlik

Abstract. The process of primary education is a crucial stage in the formation of a student’s personality, the development of thinking, and the discovery of creative abilities. Young learners have a broad imagination, a tendency to think in new ways, and a high need for learning through play. Therefore, at this stage, developing creative abilities not only increases the effectiveness of education but also lays the foundation for future skills in independent thinking, problem-solving, and innovation. The relevance of developing creative abilities is determined by the rapid changes in modern society, the need to train competitive professionals, and the growing importance of the “4Cs” in the educational process – creativity, critical thinking, communication, and collaboration. For primary school students, practical creative activities such as drawing, handicrafts, storytelling, and conducting experiments expand their imagination and thinking. Thus, the development of creative abilities in primary education is one of the key factors in supporting students’ personal growth, preparing them for future life, and improving the quality of education. This article presents several methods of developing creative abilities in primary school, their importance, and the key aspects that should be given attention in the process of fostering creativity.

Key words: 4C model, creative ability, critical approach, independent thinking, divergent thinking, communication skills, problem, adaptability.

Аннотация

Процесс начального образования является важным этапом в формировании личности учащихся, развитии их мышления и раскрытии творческих способностей. У младших школьников наблюдается широкий круг воображения, склонность к новому мышлению и высокая потребность в обучении через игру. Поэтому в этот период развитие творческих способностей не только повышает эффективность обучения, но и закладывает основу для формирования в будущем компетенций самостоятельного мышления, решения проблем и создания новшеств. Актуальность развития творческих способностей определяется быстрыми изменениями в современном

обществе, необходимостью подготовки конкурентоспособных кадров и возрастанием значимости в образовательном процессе модели «4К» – креативность, критическое мышление, коммуникация и сотрудничество. Для учеников начальных классов такие виды практической творческой деятельности, как рисование, ручной труд, составление рассказов, проведение опытов, расширяют их воображение и мышление. Таким образом, развитие творческих способностей в начальном образовании является одним из важнейших факторов поддержки личностного развития учащихся, подготовки их к будущей жизни и повышения качества образования.

В данной статье изложены различные методы развития творческих способностей в начальных классах, их значение, а также аспекты, на которые следует обращать особое внимание в процессе их формирования.

Ключевые слова: модель 4К, творческая способность, критический подход, самостоятельное мышление, дивергентное мышление, коммуникативные навыки, проблема, адаптивность.

KIRISH. Ta'lim tizimida ijodkorlikni rag'batlantirish — bu faqat ma'naviy, balki iqtisodiy taraqqiyot uchun ham muhim yo'nalish bo'lib, yurtimizda bu maqsadni qonuniy asoslarda ilgari surish bo'yicha qator chora-tadbirlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 8-iyundagi PQ-4312-sonli “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”dagi qarorida shaxsning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan[1]. Shuningdek, 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan PF-6108-sonli prezident farmoni “ O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” ham ta'lim sifati va samaradorligini oshirish mazmunida, shaxsning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablar darajasida shakllantirishga urg'u beradi. Ushbu hujjatlar ijodiy qobiliyatni rivojlantirish borasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rasm chizish, qo'l mehnati, ijodiy yozuv, tajribalar o'tkazish kabi amaliy faoliyat turlari o'quvchilarning tasavvuri, tafakkuri va moslashuvchan fikrlashini kengaytiradi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish tizimli yondashuv, innovatsion metodlar va o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar asosida olib borilishi ta'lim sifati oshirishning va yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishning muhim sharti hisoblanadi.

METODLAR. Ijodiy qobiliyat -keng imkoniyatlar va toifalarni o'zida mujassamlashtiradi, shuning uchun ko'pchilik tadqiqotlar shu qobiliyatga ko'proq yo'naltirilgan bo'ladi. Ijodiy fikrlash bo'yicha tadqiqotlar juda ko'p bo'lib, shaxslarning aniq bir yutuqqa erishishlariga yo'l ochib berishga, imkoniyatlar doirasini kengaytirishga, shaxsni murakkab va muammoli vaziyatlarga tushib qolishdan, hayotda insonni o'z imkoniyatlarini samarali baholashga yordam beradi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida yaratilgan yangi avlod darsliklarning har birida 4K ko'nikmalari kiritilgan bo'lib, bu har bir mavzu va unga ajratilgan topshiriqlarda o'z aksini topgan. 4K ko'nikmalarining hozirgi darsliklarda aks etgan mazmuni o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, turli hayotiy vaziyatlardan chiqishning muqobil imkoniyatlarini ishlab chiqish, ulardan xulosa chiqarish va shu holatni qayta takrorlamaslik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[9]. Qolaversa, boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan har qanday topshiriqlar yuqorida keltirilgan qator ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Samarali va zamonaviy ta'lim muhiti o'quvchilarga o'z intellektual qobiliyatlaridan foydalanish, bilimlarini chuqurlashtirish va ularni murakkab sharoitlarga moslashishda qo'llash imkoniyatini yaratishi kerak.

O'qitish va o'qish jarayonida o'qituvchi tomonidan o'z o'quvchilariga eng ko'p beriladigan o'quv materiallari bosma nashrlar, odatda darslik shaklida bo'ladi. Darslik o'quv materiallari sifatida sinfdagi ko'rsatmalardan iborat bo'lib, o'qitish va o'qish jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki darslik o'quvchilarga bilimlarni etkazib beradigan asosiy vositadir. Darslik o'quv materiallaridan tashqari o'qituvchilarga o'qitish va o'qish jarayonlarini tashkil etishda ham yordam beradi (Amrina, 2018). Bundan tashqari, darslik o'qitish va o'qish jarayonini samarali va muvaffaqiyatli qilish uchun bilim va qadriyatlarni o'quvchilarga etkazish uchun muhimdir. Shu bilan birga, foydalanilayotgan darslik

o'quvchilar erishishi kerak bo'lgan o'quv maqsadlariga mos bo'lishi kerak, ya'ni bilimning asosiy manbai sifatidagi darsliklar samarali o'qitish jarayonlari uchun tayyorlangan o'quv rejasi va dars rejasi bilan bir xil o'quv maqsadiga ega bo'lishi kerak.

Ijodiy qobiliyatni shakllantiruvchi ko'nikmalar – bu o'quvchining yangicha fikrlash, muammolarga noodatiy yondashish, yangi g'oyalar yaratish va ularni amalda qo'llay olishiga yordam beradigan o'quv, aqliy, hissiy va kommunikativ faoliyatlar majmuidir. Quyida ijodiy qobiliyatni shakllantiruvchi asosiy ko'nikmalar keltirilgan:

1. Mustaqil fikrlash – bu shaxsning ma'lumot va tajribalarga tayanib, o'z fikrini shakllantirishi, asoslash va qaror qabul qilish qobiliyatidir. Boshqalar ta'sirisiz, o'z qarashlariga tayanib mulohaza yuritish — mustaqil fikrlashning asosiy belgisidir. Shuningdek, mustaqil fikrlash-masalani tahlil qilish, sabab-oqibatni tushunish, turli yondashuvlarni solishtirish, o'z fikrini asoslab berish va erkin bayon eta olish imkoniyatlarini qamrab oladi. Boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlashning asosiy belgilari:

Erkin qaror qabul qilish – o'qituvchi yoki tengdoshlar fikriga to'liq bog'lanmasdan, o'z xulosasini chiqarish;

Tanqidiy yondashuv – har qanday axborotga shubha bilan qarab, uni tahlil qilish;

O'z fikrini asoslash – fikrini turli imkoniyatlardan foydalanib asoslash;

Muammoni hal qilishda o'z yo'lini tanlay olish;

Ijodiylik va yangilikka ochiqlik;

Boshlang'ich sinf o'quvchilaridamustaqil fikrlashning rivojlanishi muhim hisoblanib, uning o'quvchi ta'lim olishida quyidagi ahamiyatlarni belgilab beradi:

o'z fikrini ayta oladi va himoya qiladi;

yod olishga emas, tushunishga asoslangan o'rganish vujudga keladi;

savol berishga, izlanishga, shubha qilishga o'rganadi;

qarama-qarshi fikrlarni tahlil qiladi;

kelajakda mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsga aylanadi.

Mustaqil fikrlash – bu faqat darsda o'z fikrini aytish emas, balki hayotda to'g'ri yo'lni topish, o'z nuqtai nazarini shakllantirish va qaror qabul qilish qobiliyatidir. Boshlang'ich bosqichdan boshlab bu ko'nikmani shakllantirish, o'quvchining ijodiy qobiliyat ko'nikmalarini shakllanishida muhim poydevordir.

2. Divergent fikrlash — bu ijodiy tafakkurning bir shakli bo'lib, inson bir muammoni yoki savolni hal qilishda bir nechta, noodatiy, turli-tuman yechimlar taklif eta oladigan fikrlash uslubidir. Divergent fikrlashning asosiy xususiyatlari:

kenglik – bir muammoga birdan ortiq yondashuvlar bilan qarash;

moslashuvchanlik – fikr yo'nalishini tez-tez o'zgartirib turish;

originallik – kutilmagan, odatiy bo'lmagan fikrlar ilgari surish;

sermahsullik – fikrlar sonining ko'pligi;

O'quvchilarda divergent fikrlash o'yinlar, mashqlar, erkin savol-javoblar, yangi va noodatiy topshiriqlar berish, muammoni bitta emas, bir nechta yechim bilan hal qilishga undash, o'quvchilarga tanlov, mustaqil izlanish imkonini yaratish orqali shakllanadi. Boshlang'ich sinflar uchun divergent fikrlashga oid mashqlar sifatida «Nimani yana nima sifatida ishlatish mumkin? Masalan: qalamni nima uchun ishlatish mumkin? (yozish, o'lchash, to'qillatish...)» «Ertakni boshqacha yakunla» bolalardan ertak, hikoyalarni o'ziga mos, ijodiy tugatishini so'rash, «Agar» o'yini «Agar odamlar uchishni o'rgansa, nima o'zgarardi?» «Fikrlar zanjiri» misol tariqasida «Qush» deganda nimalar esimizga tushadi? (qanot, uchish, havo, erkinlik...) kabilarni o'quvchilarda ijodiy o'tkazish samarali hisoblanadi. Divergent fikrlash va ijodiy qobiliyat bog'liq sanalib, divergent fikrlash – ijodning asosi, har bir ijodiy yondashuv yoki mahsulot (she'r, rasm, ixtiro) – ko'p fikrlash yo'nalishlari natijasidir. Bu fikrlash turi o'quvchilarga bir xil javobni emas, ko'p imkoniyatni ko'ra olishni o'rgatadi. Demak, divergent fikrlash – bu ijodiy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, muammoni har tomonlama ko'ra olish asosidir. Boshlang'ich sinfda bu ko'nikmani shakllantirish uchun o'yin, topshiriq, savol-javob orqali erkin fikrlash muhiti yaratish juda muhim.

4. Boshlang'ich sinflarda amaliy ijodiy ko'nikmalar – bu o'quvchilarning o'z bilim va tasavvurlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash, ijodiy fikrlash va amaliy faoliyat orqali yangi mahsulot, g'oya yoki yechim yaratish qobiliyatini bildiradi. Ular bolalarning tasavvurini boyitadi, mustaqil qaror qabul qilishga, topqirlikka va estetik didga o'rgatadi. Chizma, maket, model yaratish, qo'lda ishlash, texnologik g'oyalarni

ro'yobga chiqarish, yozma va og'zaki ijod namunalari hikoya, she'r, ertak kabilardan foydalanish asosida shakllantirish mumkin. Quyida boshlang'ich ta'limdagi asosiy amaliy ijodiy ko'nikmalar turlari va ularning mazmuni keltiriladi:

1. Tasviriyl ijodiy ko'nikmalar-rasm chizish (qalam, bo'yoq, rangli qalamlar yordamida), mozaika va kollaj yasash, rang uyg'unligi, shakl va kompozitsiya bilan ishlash, mavzuga mos ijodiy kompozitsiyalar tuzish;

2. Qo'l mehnati va texnik ijodiy ko'nikmalar-applikatsiya, origami va qog'oz buklash san'ati, plastilin, loy yoki boshqa moddalardan shakl yasash, oddiy texnik lego, qurilish kublari, konstruktiv to'plam konstruksiyalari;

3. Nutq va adabiy ijodiy ko'nikmalar-hikoya to'qish va qayta hikoya qilish, she'r, topishmoq, ertak yaratish, rolli o'yinlarda sahnalashtirish;

4. Ilmiy-amaliy ijodiy ko'nikmalar-oddiy tajribalar o'tkazish (tabiatshunoslik, fizika elementlari), kundalik hayotdagi muammolarga kichik yechimlar topish, modellar yasash va loyihalar ishlab chiqish, amaliy ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish metodlari, o'yin texnologiyalari, ijodiy o'yinlarni sahnalashtirish, integratsiyalashgan darslarda san'at, texnologiya, tabiiy fanlarni uyg'unlashtirish, Loyihaviy ishlar kichik guruhlarda yoki individual ijodiy topshiriqlar, tajriba va kuzatish orqali bolalarning o'z kashfiyotlarini qilishiga imkon berish kabilarni keltirish mumkin.

5. Estetik va badiiy ko'nikmalar-san'at asarlarini tushunish va baholay olish, musiqa, rasm, teatr orqali o'z ifodasini topa olish;

6. Kommunikativ ko'nikmalar-guruhda ishlay olish, o'z fikrini tushunarli va ta'sirli ifoda qilish, bahs va munozarada ishtirok etish.

Ijodiy qobiliyat bolalikdan boshlab, turli o'yinlar, mashg'ulotlar, topshiriqlar, bahs-munozaralar orqali shakllanadi. Bu jarayonda o'qituvchining qo'llab-quvvatlashi, ijodiy muhit yaratishi va bolaning erkin fikriga hurmat bilan yondashishi muhimdir.

NATIJALAR. Boshlang'ich sinflarda namoyon bo'ladigan ijodiy qobiliyatning muhim tomonlari o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ta'limga qiziqishini oshirishga va mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida bu muhim jihatlarga to'liq yoritilgan:

1. Erkin fikrlashning boshlanishi-boshlang'ich yoshda bolalar stereotiplarga to'liq bog'lanmagan bo'lishadi. Bu davrda ular erkin, noodatiy fikrlar bildirishi, fantastik tasavvurga boy bo'lishi bilan ajralib turadi. O'quvchilarda yangi g'oyalarni taklif qilishga bo'lgan ishtiyoq kuchli bo'ladi.

2. Qiziqish va kuzatuvchanlik kuchliligi- yosh bolalar atrofdagi voqea-hodisalarga, tabiatga, odamlar harakatiga, buyumlarga nisbatan qiziquvchan va sinchkov bo'lishadi. Ular ko'p savollar berishadi, bu esa ijodiy tafakkurning rivojlanishidan dalolatdir.

3. Tajriba qilishga intilish-boshlang'ich sinf o'quvchilari har bir narsani o'z qo'llari bilan sinab ko'rishni xohlashadi. Ularning yangi bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyorligi ijodiy ko'nikmalarning shakllanishida asos bo'ladi.

4. O'yin orqali o'rganish qobiliyati-o'yinlar, rolli sahnalashtirishlar, dramalar, topshiriqlar ijodiy tafakkurni rag'batlantiradi. O'yin orqali o'quvchilar o'z g'oyalarini ifodalash, muammolarga yechim topish, jamoada ishlashni o'rganadilar.

5. Emotsional sezgirlik-boshlang'ich sinf o'quvchilari emotsional jihatdan ochiq, samimiy bo'lishadi. Bu ularning san'at, musiqaga bo'lgan qiziqishi, ijodiy ifoda vositalarini (she'r, rasm, qo'shiq) faol qo'llashga olib keladi.

6. Fantaziya va tasavvurning boyligi-ijodiy qobiliyatning asosiy manbaidir. Boshlang'ich sinfda bolalar real hayotni o'z tasavvurlari bilan boyitib, yangi obrazlar yaratishga moyil bo'lishadi.

7. Tushunchalar va so'z boyligining kengayishi-dars jarayonida yangi so'zlar, atamalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va rang-barang ifodalashni o'rganadilar. Bu esa ijodiy yozish, so'z o'yini, matn yaratishda namoyon bo'ladi.

8. Ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishi-guruhda ishlash, o'z fikrini bildirish, boshqa fikrlarni tinglash – bular ijodiy fikrlashni mustahkamlaydi. Ijodiy qobiliyat – bu faqat yolg'iz emas, balki jamoa bilan fikrlash hamdir.

Boshlang'ich sinf davrida ijodiy qobiliyatning paydo bo'lishi, rag'batlantirilishi va yo'naltirilishi o'quvchining keyingi rivojlanishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining vazifasi – bu qobiliyatlarni erta aniqlab, sharoit yaratish va to'g'ri yo'naltirishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ijodiy qobiliyatni shakllantiruvchi o'yinlar – bu bolalarda tasavvur, noodatiy fikrlash, estetik

did, ifodaviylik, muammoni hal qilish va erkin ijod qilish ko'nikmalarini rivojlantiradigan pedagogik vositalardir. Quyida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiluvchi o'yinlar turlari farqlanadi.

Ijodiy o'yinlar bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki o'quvchilarning erkin fikrlashi, o'z g'oyasini ifodalashi, noodatiy yechim topishi, jamoada ishlashi kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishda bir qancha metod, didaktik o'yinlar, usul va vositalardan foydalanish samarali hisobladi(1-jadval).

1-jadval

jadval

O'yin nomi	Tarbiya darslarida qo'llanish maqsadi	O'tkazish tartibi	Ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi ko'nikmalar
“Sehrli so'zlar” o'yini	Nutq boyligini oshirish, tasavvur va ifodali fikrlashni rivojlantirish.	O'qituvchi bir nechta so'zlarni aytadi (masalan: quyosh, gul, qush), o'quvchilar shu so'zlar asosida qisqa va ijodiy hikoya to'qishadi.	Divergent fikrlash va so'z boyligi ortadi.
“Men bo'lsam...” roli	Empatiya, ijodiy tasavvur va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish.	O'quvchilar turli hayvon, buyum yoki ertak qahramoni roliga kirib, o'zini tanishtiradi.	Rolga kirish orqali his-tuyg'u ifodasi va badiiy tafakkur rivojlanadi.
“Nima bo'lishi mumkin?” o'yini	Muammoni noodatiy yondashuv bilan hal qilishni o'rgatish.	O'qituvchi oddiy predmet (masalan, qalam) ko'rsatadi va “Bundan yana nima yasash mumkin?” deb so'raydi. O'quvchilar turli g'oyalar aytishadi.	Qisqa vaqt ichida ko'p variant topish qobiliyati oshadi.
“Ertakni davom ettir”	Hikoya tuzish, tasavvur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	O'qituvchi ertakning boshlanishini o'qiydi, o'quvchilar navbat bilan hikoyani davom ettirishadi.	Birgalikda ijod qilish, mantiqiy bog'liqlikni saqlash ko'nikmasi rivojlanadi.
“Do'stlik daraxti”	Hamkorlik, ijobiy munosabat va badiiy ifodani rivojlantirish.	Sinf doskasiga daraxt rasmi chiziladi. Har bir o'quvchi “do'stlik” haqida bir fikr yozadi va barg shaklida daraxtga yopishtiradi.	Ijodiy yozish, jamoada ishlash va axloqiy tushunchalarni mustahkamlash.

MULOHAZALAR. O'quvchilarni ilm-fan hayajoniga jalb qilish, ularga dalillarga asoslangan fikrlash va yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarning ahamiyatini aniqlashga yordam berish va ularni ijodiy muammolarni hal etishga o'rgatish azaldan fan ta'limi islohotchilarining maqsadi bo'lib kelgan. Ammo bu maqsadlarga erishish vositalari, xususan, ilmiy muammolarni hal qilishda ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullari keng tarqalgan emas va qo'llanilmagan.

Ijodkorlik elementlarini o'qitish orqali oshirish mumkinligi haqidagi eng ishonchli dalillardan ba'zilar yosh bolalar bilan ishlashdir. Bodrova va Leong (2001) ijodiy muammolarni hal qilishda ishtirok etadigan uchta asosiy aqliy ijro etuvchi funktsiyalarni: kognitiv moslashuvchanlik, ish xotirasi va inhibitiv nazoratni yaxshilash uchun «Aql asboblari» o'quv dasturini ishlab chiqdilar[8].

Ijodkorlik va innovatsiya o'quvchilarni o'sish jarayonlarida ko'proq moslashishga o'rgatadi va innovatsion echimlarni taqdim etadi. O'quvchi dars davomida bir nechta muammo va talablarga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilar tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan loyihalar alohida va juftlik yoki guruhlariga bo'lingan. Ularni bajarishda ham o'quvchilar ijodiy fikr almashinish jarayonida bo'ladi.

Rainer M. Holm-Hadulla ijodiylikni tartib va betartiblik, tahlil va assotsiativ fikrlash kabi qarama-qarshi elementlar o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirda paydo bo'lishi mumkin deb izohlaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, innovatsion yondashuvlarni rag'batlantirishda motiv va psixologik omillarni birlashtirishga urg'u beradi. Robert Sternberg hamda Wendy M. Williams ta'lim muhitida ijodiylikni rag'batlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni beradi:

ijodiy fikrlash modelini ko'rsatish – o'qituvchi o'zining ijodiy yondashuvini namoyish etishi;
g'oya ishlab chiqishni rag'batlantirish – sinovsiz g'oyalar taklif etiladigan muhit yaratish;
fanlararo yondashuv – matematikani ijtimoiy fanlar bilan bog'lab, innovatsiyani ko'paytirish;
o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirish – ijodkorlik qobiliyatiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish;

har kun gipoteza savollarini qo'yish – o'quvchilarni savollar bilan ishlashga o'rgatish;
turli qarashlarni o'rganish – biror tushunchani bir necha nuqtai nazardan ko'rib chiqish[7].

O'quvchilar muammolarni aniqlash, savollar tuzish, ma'lumot yig'ish, g'oyalarni taklif qilish va ifodalash kabi qobiliyatlarni o'zlashtiradi. Ijodkorlik muammolar noaniq shakllanganida va aniq yechim yo'q bo'lganida eng yaqqol namoyon bo'ladi.

J. Sternberg (2006) U o'zining "Triarchic Theory of Creativity" modelida ijodkorlikni uch omil — intellekt, bilim va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri mahsuli sifatida izohlaydi. Sternberg ta'kidlaydiki, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda nafaqat bilim, balki ijodiy qaror qabul qilish jasorati ham katta rol o'ynaydi[2]. M. A. Runco (2004) ijodkorlikni har bir insonda mavjud bo'lgan, ammo ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida rivojlanuvchi salohiyat deb tushuntiradi[3]. Uning fikricha, ijodiy qobiliyatni qo'llab-quvvatlash uchun o'quvchilarga erkin fikrlash imkonini berish va xatolardan qo'rqqanlik muhitini yaratish kerak. R. K. Sawyer (2012) ijodkorlikni faqat individual jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy hamkorlikda shakllanadigan hodisa deb talqin qiladi[4]. Unga ko'ra, ijodkorlik ko'pincha guruhli o'yinlar, muhokamalar va hamkorlik jarayonlarida namoyon bo'ladi. A. Craft (2005)ning tadqiqotlarida bolalarda ijodkorlikni erta yoshdan rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. U "littlecreativity" tushunchasini ilgari surib, oddiy hayotiy vaziyatlarda ham bolalarda ijodiy yondashuvni shakllantirish mumkinligini ko'rsatgan[5]. Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asosan, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish uchun erkin va quvvatlovchi muhit, divergent fikrlashni rag'batlantirish, ijtimoiy hamkorlik, moslashuvchan tafakkur va originallikni shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Boshlang'ich ta'lim davri o'quvchilarning tafakkurini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va shaxsiy rivojlanishiga poydevor yaratishning eng muhim bosqichidir. Bu jarayonda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat bolalarning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi, balki ularning mus taqil fikrlashi, muammolarga yangicha yondashishi va innovatsion yechimlar topish qobiliyatini ham shakllantiradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida 4K modeli – kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar va hamkorlik

– asosiy kompetensiyalar sifatida e’tirof etiladi. Ushbu kompetensiyalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish, kelajakda raqobatbardosh, moslashuvchan va ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2019-yil 8-iyundagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi. <https://lex.uz/>

2.Sternberg, R. J. (2006). The Nature of Creativity. Creativity Research Journal, 18(1), 87–98. https://doi.org/10.1207/s15326934crj1801_10

3.Runco, M. A. (2004). Creativity. Annual Review of Psychology, 55, 657–687. <https://doi.org/10.1146/annurev.psych.55.090902.141502>

4.Sawyer, R. K. (2012). Explaining Creativity: The Science of Human Innovation (2nd ed.). New York: Oxford University Press.

5.Craft, A. (2005). Creativity in Schools: Tensions and Dilemmas. London: Routledge.

6.Gerald, R. (2015). The World beyond the Classroom: 21st Century Education, Technology and 4Cs. <https://storify.com/RebeccaG27/4cs-in-education>

7.Sternberg R., Williams W. M. Teaching for creativity: two dozen tips. 1998. [accessed 25 March 2008]. www.cdl.org/resource-library/articles/teaching_creativity.php

8.Bodrova E., Leong D. J. American Early Childhood and Primary Classrooms. Geneva, Switzerland: UNESCO International Bureau of Education; 2001. The Tool of the Mind: a case study of implementing the Vygotskian approach.

9.Компетенции «4К»: средовые решения для школы. Практические рекомендации: учебно-методическое пособие / сост. М. А. Пинская, А. М. Михайлова. — М. : Российский учебник, 2020. — 95, [1] с. : ил.